

Tarix EDUCATION + TestLiderTarix

DTM 2018 (3-AVGUST)

TARIX

1. Eneolit kashfiyotlari... **1) Qadimgi sharqda ilk shaharlar va davrlarlar vujudga kela boshladi; 2) O'rta Osiyo janubida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik vujudga keldi; 3) Xom g'ishtdan ko'p xonali qurila boshlandi; 4) Kulolchilik xumdonlaridan foydalanildi; 5) Sopol idishlar bezatila boshlandi.**
2. Neolit davrida sodir bo'lgan voqealar... **1) Sopol idishlar yasala boshlandi; 2) Qadimgi Sharqda ishlab chiqaruvchi xo'jalik – ziroatchilik va chorvachilik vujudga keldi; 3) O'troq turmush tarziga o'tish boshlandi; 4) Doimiy turar joylar qurish boshlandi; 5) Paxsa imoratlar vujudga keldi. Kulolchilik va to'quvchilik vujudga keldi. 6) Odamlar misdan foydalana boshlashdi.**
3. Sin Shixuandi yashagan davrda sodir bo'lgan voqeani aniqlang. **Kan yaqinida Rim imperiyasi armiyasi tor-mor etildi.**
4. Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tgan davlat qachon qudratli davlat birlashmasiga aylandi? **Mil.avv. II asr oxiri Qang'**
5. Saljuqiylarda yer egaligining o'ziga xosligi? saljuqiylardà davlat yerlarining xususiy yerlarga nisbatan ko'p bo'lishida edi. **davlat yerlarining xususiy yerlarga nisbatan ko'p bo'lishi**
6. Toxarlarning kimlarning avlodlari? **Kushonlar**
7. Fransiyada diniy urushlar qaysi voqeadan keyin boshlandi? **1562-yilda qirolning qarindoshi, katoliklar rahnamosi gersog Fransua Giz o'zining ko'p sonli qo'riqchilari bilan ibodat qilayotgan protestantlarga hujum qilishi**
8. Uchquloq rangli metallar konining kengaytirilishi natijasida qanday posyolkalari vujudga keldi? **Uchquloq va Band**
9. 600 yillik yubileylari nishonlangan allomalar? **Mirzo Ulug'bek (1994-yil oktabr) va Xoja Ahror Valiy**
10. Quyidagi yozuvchilarning o'z asarlariga to'g'ri muvofiqlashtiring.
1) Ibn Al-Asir; 2) Mirxond; 3) Juvayniy.
a) al-Komil fit tarix; b) Ravzat us-safo; c) Tarixi jahonkushoy **1-a, 2-b, 3-c**
11. Jonibek, O'zbek, Botuxonning hukmronlik yillari bilan joylashtiring? **Jonibek (1342-1357); O'zbekxon (1312-1342); 1236-1255**
12. G'arbiy Afrikada manfaatlari to'qnash kelgan davlatlarni aniqlang. **Gollandiya, Belgiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va AQSH manfaatlari to'qnashdi**
13. Quyidagi shaxslardan qaysi biri rus va o'zbek tillarini o'rganish bo'yicha qator darsliklar muallifi hisoblanadi? **V.Vyatkin**
14. 1917-yil fevraldan keyin Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi qarorgohi qayerda joylashgan? **Tuproqqal'a**

Tarix EDUCATION + TestLiderTarix

15. Litvada G.Vagnoryus davrida aholining noroziligi keltirib chiqargan sabablarni aniqlang? **1) ijtimoiy muammolarga yetarlicha e'tibor qaratmagani; 2) ma'muriy-xo'jalik xatoliklariga yo'l qo'ygani; 3) korrupsiyaga qarshilik ko'rsatishni eplay olmagan**
16. Qrim konferensiyasida Rossiyaga qaysi hududlar berilishi kerak edi? **Saxalin va Kurill orollari**
17. Fransiyada vaqtinchalik rejim davri nechanchi yillar? **1944-yil sentabr – 1946-yillar**
18. XIX asr so'nggi choragida Fransiyada iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashishiga sabab bo'lmagan omilni aniqlang? **1) Fransiyaning hamon mayda tovar ishlab chiqaruvchilar davlati bo'lib qolayotganligi sababli import hajmining eksportdan ortiq bo'lishi 2) ichki bozorning cheklanganligi va tabiiy boyliklarning kamligi; 3) Prussiya bilan bo'lgan urush Fransiyaga juda katta moddiy talofat yetkazilishi; 4) ichki siyosiy vaziyatning beqarorligi mamlakat iqtisodiy ahvoriga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi; 5) Beshinchidan, dehqonlar xarid quvvatining pastligi sanoat ishlab chiqarishi o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi; 6) Fransiya chetga ko'p kapital chiqarib yuborishi.**
19. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga nechanchi yillarda o'zgartirish kiritilgan? **2003-yil, 2007-yil (2008-yil, 2011-yil, 2014-yil, 2017-yillarda ham konstitutsiyamizga o'zgartirishlar kiritilgan, lekin variantda ikkitadan yil berilgan)**
20. 1990-yil 2-iyunida ... **O'zbekiston Prezidentining 1990-yil 2-iyundagi "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilish to'g'risida"gi farmoniga binoan O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar**
21. Angliyada Inqilobdan so'ng parlament nima uchun mamlakatda fuqarolar totuvligini ta'minlay olmadi? **1) aholining quyi tabaqalari manfaatlarini hisobga olmaslik hamda; narx-navoning o'sishi; ommaviy ihsizlik**
22. 1944-yilning yozi va kuzi davomida qaysi Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa qaysi davlatlari fashizmdan to'la ozod etildi? **Polsha, Yugoslaviya, Ruminiya, Bolgariya, Vengriya, Albaniya**
23. 1979-yil hokimiyat tepasiga kelgan va 2006-yilda otib o'ldirilgan Iroq rahbarini aniqlang. **Saddam Husayn**
24. Xiva xonligi 1843-1844 yillarda qaysi davlatdan elchilar kelgan? **Qo'qon**

(Yuqoridagilarning barchasi bitta odamdan yozib olingan. 24 ta savol esida ekan, 30 taga yetirish uchun yana 6 ta savol kirgizaman, o'zimdand emas, ular ham DTM 2018. Bu gapni aytishimdan maqsad: bu testga qarab, maktab darsligi va kollej darsligidan tushadigan testlar sonida adashib qolmang)

Tarix EDUCATION + TestLiderTarix

25. Inson qachon chopqir hayvonlar va qushlarni ovlay boshladi? **Mezolit**
26. Buyuk Xitoy devori nima maqsadda qurilgan? **o‘z davlatini ko‘chmanchi xunnlarning hujumlaridan himoya qilish uchun**
27. Jaloliddin Manguberdiga “o‘z zamonasining haqiqiy bahodiri ekan, o‘z tengqurlarining sarvari ekan” deya ta’rif bergan shaxs bilan Jaloliddin o‘rtasida qachon jang bo‘lgan? **1227-yil sentabrda (Taynol No‘yon bilan)**
28. Kubadagi barcha inqilobiy kuchlar yagona tashkilotga – Kuba Kompartiyasiga birlashib, Fidel Kastro uning rahbari etib tayinlangan davrda AQSH da kim Prezident edi? **Lindon Jonson**
29. Abdullatif 15 kun davomida qayerda hokimlik qilgan? **Hirotda**
30. Baqtriya yozuvi asosida shakllangan alifbolar... **Eftallar va Toxar alifbosi**

(tezkorlikda yozib olingan, 2018-yil kirish imtixonida tushgan savollar. Asli men testni bunday tuzmayman, unga ishlov beraman, jumalalarda xato qilmaslikka harakat qilaman. Kamchiliklar bo‘lsa uzr. Studentlar (bo‘lajak) tezroq kanalga joylashimni so‘rashyapti. Shuning uchun kamchiliklar bor)

Ilmiy, foydali kanallarimiz. Kirishingizni TAVSIYA ETAMIZ!

1. [T.me/TestLiderTarix](https://t.me/TestLiderTarix)
2. [T.me/Tarix_EDUCATION](https://t.me/Tarix_EDUCATION) -
3. [T.me/YangiTarix](https://t.me/YangiTarix)
4. [T.me/Tarix_test](https://t.me/Tarix_test)
5. [T.me/DTM_info](https://t.me/DTM_info)

TARIX FANIDAN REPETITOR JALOL BOLTAYEV

MUROJAAT UCHUN: +99897 299 00 66

MANZILIMIZ: XORAZM V. URGANCH SH.

TestLIDER

JALOL BOLTAYEV